O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

1. Lorena Parra, Remote Sensing and GIS in Environmental Monitoring, in: Environmental Science, 2022, pp. 1-8.
2. P. Shanmugapriya, S. Rathika, T. Ramesh and P. Janaki, Applications of Remote Sensing in Agriculture - A Review, in: International Journal of Current Microbiology and Applied Sciences, 2019, pp. 2270-2283.
3. X. Ren, J. Malik, Learning a classification model for segmentation, in: Internetional Conference on Computer Vision, 2003, pp. 10-17.
4. R. Mester, U. Franke, Statiscal model based image segmentation using region growing, contour relaxation and classification, in: SPIE Symposium on Visual Communications and Image Processing, 1988, pp. 616-624.
5. O. Yusupov, E. Eshonqulov, R. Yusupov, and K. Sattarov, Analysis of superpixel segmentation approaches in remote sensing images, AIP Conferenc Proceedings, Volume 3147
6. Achanta, R., Shaji, A., Smith, K., Lucchi, A., Fua, P., Süsstrunk, S.: Slic superpixels compared to state-of-the-art superpixel methods. IEEE Trans. Pattern Anal. Mach. Intell. 34(11), 2274-2282 (2012)
7. M. Y. Lui, O. Tuzel, S. Ramalingam, R. Chellappa. Entropy rate superpixel segmentation. Conference on Computer Vision and Pattern Recognition, 2011
8. D. Martin, C. Fowlkes, J. Malik. Learning to detect natural image boundaries using local brightness, color, and texture cues IEEE Transactions on Pattern Analysis and Machine Intelligence 26 (5) (2004) 530–549
9. Mirzaev, O., Radjabov, S., Mirzaev, N., Rabbimov, I., & Baratov, J. (2024). Construction of statistical recognition algorithms based on two-dimensional threshold functions. Procedia Computer Science, 234, 123-130.

TALABALARNING KREATIV FIKRLASH DARAJASINI ANIQLOVCHI INNOVATSION DIDAKTIK MODEL XUSUSIYATLARI

p.f.f.d. (PhD), dots., Rasulova Zilola Durdimurotovna
Buxoro davlat universiteti
zrasulova383@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayonlariga keng tadbiq etish, kompyuter vositasining innovatsion muhitidan foydalanib dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ shaxs sifatida tayyorlash modelini joriy etish mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, dasturiy mahsulot, elektron ta’lim, kreativ qobiliyatlar, didaktik model, ta’lim-tarbiya jarayonlari, rivojlantirish.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini shakllantirish va rivojlantirish hamda ushbu sohani boshqarishning nazariy, metodologik hamda amaliy masalalari yurtimiz va xorijdagi ko‘pchilik olimlar ilmiy ishlarining

mavzusiga aylanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, shuningdek, ta’lim sohalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan say-harakatlar samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resuruslarini yaratishni takomillashtirish, shuningdek ichki va jahon ta’lim resuruslaridan foydalanishni ta’minlash kabi vazifalarning belgilanishi ta’lim sohasidagi qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayonlarini tubdan takomillashtirish, o‘qitish jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish, raqamlashtirish sharoitida axborot texnologiyalarini keng joriy eish bilan elektron ta’lim xususiyatlarini optimallshtirish ko‘zda tutilgan. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta’lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo‘llash orqali ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada bo‘lajak pedagoglarning kreativ qobiliyatlarini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish imkonini beradi [3]. Talaba shaxsini, uning individualligini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologilarining didaktik potentsialini tushunish pedagogik yo‘naltirilganligining muhim xususiyatidir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-307-son Qarorida “Yoshlarni axborot texnologiyalari sohasida dasturiy ta’minot ishlab chiqish bo‘yicha o‘qitish va o‘quv platformasini joriy qilish” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Qarordan ko‘zda tutilgan maqsad ham ta’lim muassasalarida o‘qitishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va ta’lim rivojining jadalligini oshirish va bo‘lajak kadrlarning axborot-kommunikatsion texnologik bilim, ko‘nikmalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, mustaqil ishlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni samarali tashkil etish va o‘quv fanlarini puxta o‘zlashtirilishining izchilligini ta’minlash jarayonini shakllantirishdir [2].

Ayni damda o‘quv jarayonlarni amalga oshirishda qo‘l keladigan ko‘plab dasturiy mahsulotlarni ko‘rish mumkin. Shu qatorda talabalarda kreativ bilim, ko‘nikmalarni aniqlovchi elektron baholashning tuzilmaga asoslangan ACTIVATOR modeli ham bundan mustasno emas. Talabalarning bilim darajasini aniqlab beruvchi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan bunday innovatsion dasturiy mahsulotning vazifasi kreativ bilimlarni tartibga solish va tizimlashtirishdan iborat. Baholash modelining asosiy tushunchasi (ACTIVATOR modeli) baholash jarayonini ko‘p o‘lchovli tushunishga va tegishli tahlilga asoslanadi. ACTIVATOR modeli maqsadga yo‘naltirilgan baholash modellariga tegishli. Ushbu model jarayonning tegishli mantiqiy tuzilishini hisobga olgan holda kuzatish ma’lumotlari asosida bunday jarayon o‘z maqsadiga qanday erishilganligini aniqlash usuli hisoblanadi.

ACTIVATOR modelining asosiy xususiyati shundaki, u jarayonning maqsadli tuzilishiga moslashtirilgan ma’lumotlarni qayta ishlash nazariyasiga ega. Baholash maqsadi yoki jarayonning mantiqiy tuzilishi jalb qilingan guruhlarga baholash jarayonlari bo‘yicha o‘z qarashlari va natijalarini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Baholash maqsadlarini aniqlashning murakkabligi baholash maqsadlarini muhokama qilish uchun shaffof usullarni talab qiladi.

Ushbu innovatsion didaktik model bosqichlari, ma’lumotlar izchilligi va jarayon nazoratini o‘z ichiga oladi, ammo jarayonni amalga oshirish sifatini an’anaviy va sinov usullari bilan o‘rganib bo‘lmaydi. Asosiy g‘oya jarayon tuzilishini va jalb qilingan foydalanuvchilar guruhlarining turli rollarini tushunishdir. Bundan tashqari model jarayon ma’lumotlarini har bir jarayon bosqichiga qo‘shish imkonini beradi. Bunday avtomatlashtirilgan tahlil usullari bilan turli parametrlarni baholash mumkin. Ushbu yondashuv ta’lim texnologiyalariga asoslangan baholash usuli bo‘lib umumlashtirilgan va ko‘p turdagi jarayonlarda qo‘llaniladi va tegishli parametrlarni optimallshtiradi, talabalarni umumiy o‘quv jarayonining markaziga olib chiqadi.

Texnologik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, ta’lim oluvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatuvchi zarur axborotlarni tanlashga undash, tegishli shart-sharoitlarni yetkazish orqali innovatsion bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim jarayonini qurish, oliy ta’limdagi muhim tendentsiya raqamli texnologiyalardan tobora faol foydalanish va onlayn ta’lim formatlarini kengaytirish darkor. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali ta’limning zamonaviy boshqaruv tizimi asosiy tamoyillari, elementlari, uslublari hamda ularning davr talablariga mos ravishda rivojlanish qonuniyatlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-yil 6-iyuldagi 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni.

3. Aripov A.N., Iminov T.K. O‘zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi menejmenti masalalari // Monografiya. T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2005, - 300 b.

4. Niyazova N.A., Ximmataliyev D.O. “Integratsiyalashgan axborot ta’lim muhitida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish // Monografiya. NamMQI. 2020, - 126 b.

РАЗРАБОТКА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ И МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ СИСТЕМ ДОКУМЕНТООБОРОТА

доц. Рахманов Аскар Тажибаевич,
асс. Абдувалиева Зебинисо Абдулхамидовна